

MATONATLI AYOL

Ismatillayev Ilhomjon Shamsiddin o'g'li

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar
fakulteti O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi talabasi*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada O'z dinini himoya qilib Vatani himoya qila olmaydigan insonlarga qarata nomusi,dini, vatani uchun o'z yaqinlaridan kechgan ayol tasvirlangan.*

Turk adabiyotining mashhur yozuvchisi Omina Shenliko'g'lining " Ehromlar qizi Laylo" romani juda o'tkir suvjetga ega bo'lib, asarda uch avlod hayotining turli sinovlari, qahromonlarning taqdirining kutilgan va kutilmagan sinovlar bilan evrilishiga guvoh bo'lish mumkin.

Otasining qarshligiga qaramasdan o'z sevgisiga erishish uchun misr ehromlarida yolg'iz o'zi yashagani shunda ham otasi rozi bo'lmagani sababidan sevgilisi bilan ketgan Layloning baxtiyor va shirin boshlagan hayoti shu qadar achchiq va shu qadar ayanchli yakun topadiki, voqealarning xilma-xilligi asosan bir ayol, uch erkak tomonidan ishonchi toptalganini o'qigan har bir kitobxon u uchun yashashni boshlaydi. Sevgan yori atasiga qarshi chiqib tanlagan yori tomonidan qilingan xiyonat layloning g'ururi asarning to'laqonli tugunini yarata olgan. Hali tug'ilmagan bolasining kelajagi va istiqboli uchun o'zining hayotidan kechib qilgan sabri uchun Alloh tomonidan berilgan ilohiy ishqdan kechadi. Laylo romanda o'z vatani uchun jon parchasidan kechgan ona, o'z or-nomusi uchun qotil bo'lishdan ham qo'rqmaydigan jasur va g'ururli ayol sifatida tasvirlangan. Laylo ko'z qorachig'iday asragan o'g'lining ham unga qilgan xiyonati, umri davomida erkaklar oyog'i ostida toptalgan qadrini, otasining oldida isbotlay olmagan haqiqati uni ruhiy o'ldiradi.

"Bolam, unday qilma! Yolvoraman senga! O'g'lim senga yaxshi bo'lishi, ko'ngling o'ksik bo'lmasligi uchun harakat qildim... Bolam qayt! Seni jangari qilolmayman!..."[1. 265-b] deb o'g'luga iltijo qilgan Layloning ichidan o'tayotgan dardi va ko'z oldidan o'tkazayotgan hayotini asarni o'qigan kitobxongina his qila oladi. Bir tomondan qachonlardir otasini norozi qilib ehromlarning qiziga aylangan Laylo bir tomonda onasini umrini va o'z hayotini xiyonatga almashgan farzandning o'z onasi tomonidan otilgan jasi, bir tomondan Alloh sabri va qanoati uchun unga tortiq qilingan sevgisi turar edi. Qayerdadir yo'l qo'yilgan xato yoxud bo'shliq ona farzandining o'z orzudagidek inson bo'lin ulg'ayishi yo'lida qilgan ming harakati butunlay aksiga aylanishiga olib keldi. Achchiq yakun bo'lsada, onaning xalqi,vatani oldida adolatli qaror qabul qilishi yaralangan yuragi, taskin topa oladi.

"Unday qilma o'glim vataningni sotma o'g'im! Bir farzandki vatansiz, uning muqaddas bayrog'isiz yashay olmaydi. Axir,Vatan uchun, o'lka uchun ham, jon olinur,ham jon berilur! "[1. 67-b]

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytamizki, maskur asar o‘z vatanini sevgan va sevmagan barcha insonlarni vatanga bo‘lgan muhabbatini oshiradi. Layloning qismati barcha ayollar Allohga hamd aytishi uchun namuna bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Omina Shenliko‘g‘lining “ Ehromlar qizi Laylo” 2022. “Zukko kitobxon” nomidagi nashriyot matbaa uyi.
2. <https://kitobman.uz>